



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



**JADID MAKTABLARI: JAMIYAT MODERNIZATSIYASIDAGI O'RNI VA
TA'LIMIY KONSEPSIYALARI**

Botirov Timurbek Baxtinur o'g'li

Qo'qon davlat universiteti magistri

tel: 916852002

Annotatsiya: *XIX asrning oxiri - XX asrning boshlari nafaqat jamiyatning siyosiy-ijtimoiy hayotida, balki madaniy-adabiy jabhalarda tub evrilishlar, yangicha qarashlari yangicha maqsadlar davri bo'lib tarix sahifalaridan joy oldi. Shubha yo'qki, ana shu jiddiy o'zgarishlar boshida jamiyat hayotini isloh qilishga, kishilar ongida yangicha qarashlarni shakllangirishga bel bog'lagan, yerli xalq qalbida jo'yali hayotga umid uyg'ota bilgan jadidlar turgan.*

Kalit so'zlar: *jadidchilik, jadidchilik harakati, jadid adabiyoti taraqqiyoti tamoyillari, ma'rifatparvarlik, badiiy adabiyotda ijtimoiy-siyosiy yo'nalish, individual shaxs faoliyati.*

Аннотация: *конец XIX-начало XX века стали временем радикальных перемен, новых взглядов и целей не только в политико-общественной жизни общества, но и в культурно-литературных фронтах. Нет сомнений, что во главе этих серьезных преобразований стояли джадиды, которые были полны решимости реформировать жизнь общества, сформировать новые взгляды в умах людей, вселить надежду в жизнь коренных народов.*

Ключевые слова: *джадидизм, джадидистское движение, принципы развития джадидской литературы, просветительство, общественно-политическая направленность литературной литературы, индивидуальная деятельность.*

Abstract: *The end of the XIX-the beginning of the XX century became a time of radical changes, new views and goals not only in the political and social life of society, but also in the cultural and literary fronts. There is no doubt that these serious transformations were led by the Jadids, who were determined to reform society, form new views in people's minds, and inspire hope in the lives of indigenous peoples.*

Key words: *djadidc, the djadidic movement, tendencies of the djadidic movement, of personal, peculiarities of the djadidic literature, the genres htculiar to the djadidic literature, ideological, position, traditional nature, individuality, high artistic, value, poetry, publicism, children'*

Ular o'zlarining siyosiy-ijtimoiy faoliyatlari, tashkil etgan o'quv maskanlari nashr ettirgan kitob, gazeta va jurnallari, ta'lim va tarbiyaning teatr kabi yangi o'choqlaridan foydalanganliklari hamda boshqa bir qator yangiliklari, millatparvarliklari va yurtparastliklari bilan xalq taqdirida o'ziga xos mavqe va maqomta ega bo'lib, tarixning yorqin sahifalaridan o'rin olganlar. Shunday tub evrilish markazlaridan biri Qo'qon bo'lgani ham shubhasiz.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Qo'qonlik jadidlar Turkistonda to'liqlanib turgan bu jarayonning asosiy harakatlantiruvchi kuchi bo'ldilar. Shunday kuchlar safida Ibrohim Davrondek yangilikparvar, millatparvar shaxs ham bo'lib, uning nomi hamda asarlarida alohida o'rin tutganligi, yuqori mavqe egallagani e'tiborta loyiqdir.

Ibrohim Davronning hayot yo'li, ijtimoiy faoliyati, badiiy adabiyot sohasidagi xizmatlariga dahldor ishlarning salmog'i u qadar ko'p emas.

Ayrim kichik-kichik maqolalar, biron-bir masala munosabati bilan uning nomi hamda asarlarini eslash, ba'zi bir qaydlar, zamondosh kishilarning xotiralari, shu davrta oid tadqiqotlarda aytilgan jo'z'iy fikrlar, shular bilan bir qatorda Ibrohim Davron qalamiga mansub asarlardagina bu adib hayoti, faoliyati borasida ayrim ma'lumotlarni olish, u hakda ba'zi bir fikrlarni o'rtaga tashlash mumkin bo'ladi.

Aslida, Cho'lponning nazariga tushgan, Hamzadek siymoni yangi bir ma'rifiy yo'nalishga solib yuborgan, o'z davrida ilm- ma'rifatning faol targ'ibotchisi, shoir, dramaturg, publitsist, tarjimon bo'lgan, suratkash va musavvir sifatida el nazariga tushgan bu serqirra ijodkorning tarjimai holini atroflicha o'rganish, barcha turdagi asarlarini ilmiy tadqiq qilish fursati allaqachon yetib kelganligini unutmazlik lozim. Hamma gap mazkur vazifalar ijrosiga zudtar kirishish, unga tegishli adabiy merosni jamlash, bu merosni nashr etib, ularni xalqqa haqiqiy vorislariga yetkazishdadir.

Ibrohim Davronga zamondosh bo'lgan Qo'qonlik taraqqiyotparvar ziyoli Po'latjon Domulla Qayyumiy o'z tazkirasida u haqda quyidagi ma'lumotni beradi:

"...Turli gazeta va jurnallar o'qur, taraqqiyparvar ongli odam bo'lib, fototraf apparatta 1-bo'lub 1904 nchi yilda Sharq ko'chasidagi hovlida (hozirti Istiqlol ko'chasi – M.Q.) rasm oladigan joy etdi... Vayeskalar ham yozar, elta ruscha ariza ham yozar edi...

Ko'p shaharlardan, shoirlardan ulfat do'stlari bor edi. Namanganda ham turganda To'raqo'rg'onli shoir Ibrat Ishoqxongo'ra (bilan) aloqasi bor edi. "Turkiston viloyatining gazetasi" nomli gazetada Davron tahallus bilan 1903 yildan boshlab ganqidiy maqolalari chiqq boshlagan edi..."

Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon 1922 yili "Qizil bayroq" gazetasida chop etilgan "Ikki yo'qotish" maqolasida ma'rifatparvar Mavlaviy Yo'ldosh qatorida Ibrohim Davronida hurmat bilan eslab, quyidagilarni qayd etgan:

"Ibrohim Davron (A'zamxon Ibrohim o'g'li) 48 yoshda vafot etgan. Bu yitit Ho'qand yoshlari orasinda nashriyot ishlari bilan ganilg'on bir kishi bo'lib, inqilobgacha Ho'qandda kitoblar va gazetalarni tarqagar va yozuvchilik bilan shug'ullanar edi.

Uning "Milliy (Madaniy - MQ.) jumboqlar" va "Ash'ori nisvon" o'tliq ikki asari bordur. Avvoltisi bizning milliy tobishmoqlarimizni to'plog'on bir asar bo'lib, ikkinchisi o'zbeklardan yetishgan ba'zi bir shoirlarning she'rlari majmuasi edi. Ulug' ahamiyatga ega bo'lg'on so'ngti asari, taassufta qarshi, maydonda ko'rinmaydur. Holbo'qi, arbobi tomonidan tekshiriladurg'on bir narsa edi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Marhum rasimga ham xavaslik bo'lib, o'z asarlari uchun rasmlar ishlagan va 1914 yilda Turkiyaga ham sayoxat etgandir. "Sadoyi Turkiston" gazetasining doimiy yozuvchilaridan bo'lib, unda she'rlar yozg'uvchi edi (1914). Buda ko'p yo'qsillik bilan o'lg'on. Uning bir juft (bir bayt – M.Q.) she'ri esimda qolg'onkim, o'qimaganlikka qarshi yasalg'on, bu isyon (o'z vaqtida) ko'p katta isyon edi (o'zicha).

«Johil padarim, johila modar esa mutlaq,
Hayron qoluram kufr ila iymon orasinda».

Cho'lpon fikrlaridan kelib chiqadigan xulosa shuki, Ibrohim Davron o'z davrining yetuk, ko'zga ko'ringan adibi bo'lgani bois Cho'lpondek buyuk allomaning nazariga tushgan; taraqqiyparvar ziyoli, hamda iqtidorli ijodkor sifatida ilm-ma'rifatning targ'iboti bilan muttasil shug'ullangan, shu xizmatlari tufayli davrning ma'rifatparvar kishilari e'tiborini tortgan. Cho'lpon Ibrohim Davronning she'riyati, musavvirlik faoliyati, topishmoqlar to'zib, bolalar dunyoqarashini o'stirishga bel bog'lagani, she'riyat hamda publitsistikasida Behbudiyar, Fitratlar bilan bir yo'ldan borgan va o'zbek millatining istiqboli uchun qayg'urgani uchun uning nomini ana shunday hurmat va ehtirom bilan tilga olib, vafotidan qayg'uradi.

To'xtasin Jalolov "O'zbek shoirlari" kitobida (1966) Ibrohim Davron hamda uning "Ash'ori nisvon" to'plami xususida so'z yuritgan, adibning hayot yo'li, asarlari borasida qimmatli ma'lumotlarni bergan. Mazkur kitob Ibrohim Davron tarjimai holiga oid ma'lumotlarni muayyan tartibta solishda qimmatli manba vazifasini o'taydi.

Ibrohim Davron 10 yoshida rus-tuzem maktabita o'qishga kirib, onasining panohida 7 sinfni to'tatishga muvaffaq bo'ladi. O'zbek mumtoz adabiyoti namunalarini. sharqona tabobatni chuqur o'rgangan Abu Ali ibn Sino asarlariga katta mehr qo'yadi. Davr matbuotini - o'sha yillarda bahorti qo'ziqorinlardek ko'payib borgan vaqtli nashrlarni muttasil kuzatib, she'rlar mashq qiladi. Uning musannafoti. "maqolalari "Turkiston viloyati tazeti". "Sadoyi Turkiston", "Sadoyi Farg'ona" singari gazetalarda chop etilgan. Ayrim kishilarning ma'lumotiga qaraganda, mahalla-ko'ylarda, choyxonalarda kishilarni o'quvta, ma'rifatta, davriy matbuotni mungazam kuzatib borishga undagan, odamlarga gazeta jurnallarni o'qib berib, jamiyatda yuz berayotgan voqealardan o'toh etib turgan, 1900 yilda Qo'qon shahrida birinchi fototrafyani ochgan, shuningdek, "Madoro" kutubxonasini tashkil qilgan.

Darhaqiqat, Ibrohim Davron o'zida ma'rifatli bo'libgina qolmay, jaholatga qarshi kurashib, o'zbek milliy madaniyatini taraqqiy ettirish. "savodsizlik"ni to'tatish, elni ma'rifatli qilish yo'lidagi xayrli ishlarning eng oldingi saflarida borgan. Uning qisqa fursat bo'lsa-da, pedatotlik qilgani, teatr ochib, u orqali kishilarni ma'rifatlangirmoqchi bo'lgani, ko'plab publitsistik maqolalar bitgani, Abu Ali ibn Sino asarlarida ishlatilgan tibbiyotda oid arabiy, forsiy so'zlarga izohli lug'at tuzgani, "Ta'limi jug'rofiya" kitobini yozgani, milliy hayot lavhalarini tasvirlovchi "Vagan ishq" (1915), "Tengsiz uylanish" (1916), "Og'ir hollar" (1916) drama hamda komediyalarini yozgani va hatto 1921 yil oktyabrida "Besh kunlik umr" nomli ope-retta librettosini bitgani, tarjima bilan shug'ullangani ma'lum'. Albatta, bu serqirra ijod sohibining



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



yaratgan asarlari va faoliyati hali o'z bahosini, shuningdek, tahlil va tadqiqini to'la olgan emas. Uning ijod mevalari bo'lgan turli mazmun va shakldagi asarlarini tadqiq etish Ibrohim Davron yashagan davr, shu davrda qalam tebratgan ijodkorlar, shu davr adabiyotining yo'nalishi xususida muayyan to'xtamlarga kelish imqonini beradi.

Qo'qon adabiy muhitidagi jadidchilik yo'nalishi o'zbek jadid adabiyotining eng yaxshi xususiyatlarini o'zida mujassamlashtirgan. Qo'qonlik adiblar turli to'siq va tazyiqlarga karamasdan, o'sha davrda ustuvor bo'lgan qator janrlarda barakali ijod qilganlar. Ular yaratgan she'riy, nasriy, dramatik va publitsistik asarlar milliy adabiyotimizning galdagi ravnakita to'rtki berdi, o'zbek jadid adabiyoti - milliy uyg'onish davri adabiyotining shakllanishi hamda taraqqiyotida muhim omil bo'ldi. Ayniqsa, jadid adiblari o'rtasidagi hamqolik va hamjixatlik, maslak birligi, fikr va qarashlardagi yakdillik ularning el aro hurmat-e'tibor topishiga imqon berdi. Eng muhimi, XX asr boshlari o'zbek adabiyoti mavqeyini ana shu yo'nalishda ijod qilgan adiblar belgilab berdilar. Kezi kelganda, ikki buyuk adib Ibrohim Davron hamda Hamza ijodi, ular o'rtasida yuzaga kelgan do'stona munosabat to'g'risida to'xtab o'tishni joiz deb bilamiz. Tarchand Ibrohim Davron bilan Hamza o'rtasida o'n-o'n besh yosh farq bo'lgan esa-da ular dunyoqarashi, fikrlash yo'sini, binobarin, ijodida ham benihoya yaqinlik bemisl yakdillik mavjud edi.

Hatto, "Hakimcha" laqabi bilan mashhur bo'lgan Hamza Hakimzodaning otasi Ibn Yamin o'g'lining jadidlar yo'lini tutganidan boxabar bo'lgach: "O'g'limning bu yo'lga kirishiga Ibrohim Davron sababchi bo'lgan", - degan ekan. Bu gaplar haqiqatta qanchalik yaqin yohud uzoq bo'lmasin, bu ikki buyuk insonni maqsad va niyat. ijodidagi ma'rifatparvarlik yo'nalishi, el-yurt ozodligi yo'lidagi sa'y-harakatlar mushtarakligi birlashtirib turgan.

Ibrohim Davron Qo'qonda ilk fototrafıya, tashkil etishi barobarida "Madoro" kutubxonasini ham ishga tushirgan va ana shu kutubxona noshirligida Hamzaning "Yangi saodat yohud milliy rumon" deb atalmish nasriy asari bosmadan chiqqan. (Yuqorida eslatganimiz "Madaniy jumboqlar" to'plami ham shu yerda nashr etilgan.)

Hamzaning "Milliy ashulalar uchun milliy she'rlar majmuasi" va boshqa to'plamlaridan o'rin olgan she'rlari Ibrohim Davronning "Ash'ori nisvon" to'plamiga kirgan bir qator she'rlariga mazmunan va shaklan juda yaqin. Bu yaqinlik, ayniqsa, ma'rifatparvarlik g'oyalari targ'ibotida, maktab va maorif orzusida bitilgan satrlarda ko'zga yaqqol tashlanadi. Qo'qon shahrida "Sadoyi Farg'ona" gazetasi nashr etila boshlangach. uning sahifalarida Ibrohim Davron va Xamzaning ilm-ma'rifatta chorlovchi she'rlari, maqolalari peshma-pesh bosilib turgan. Ibrohim Davronning "Sadoyi Farg'ona" sahifalarida bosilgan asarlaridan biri "Ho'qandi Suhmozor" deb ataladi. "Suhmozor" qadimdan "muqaddas" sanalib kelingan mozor bo'lib, bu joyda asosan ayollar ibodat qilganlar, sig'inganlar va o'z dardlariga shifo istab, u yerta borganlar.

I. Davron mazkur felbetonida mozorning o'zlarini "shayx" (mozor mo'tasaddisi) deb e'lon qilgan yulg'ich, ta'magir kishilar makotilga aylanib qolganligini jidtsiy ganqid qilgan. Qizig'i shundaki, Hamza 1926 yili Avval qishlog'ida "Paranji sirlaridan bir lavha yoki Yallachilar ishi"



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



dramasini yozganida ustozlari bundan o'n ikki yil muqaddam qalamga olgan mavzuni eslab, Suhmozor mavzuita murojaat egadi. Drama bosh qahramoni To'laxon (Holixon) aynan shu mozorta davo istab borib, nobakor kimsalar tuzog'iga ilinadi va bir umr baxtsizlik ummotilga g'ark bo'ladi. Ibrohim Davron hamda Hamza Hakimzoda o'rtasidagi dustlik va hamkorlik rishgalari "Kentash" jurnali chiqara boshlaganlarida, birining muharrirlik, ikkinchisining esa musavvirlik vazifasini bajarganligida, ayniqsa, kuchaydi. O'rni kelganda shuni ham aytib o'tish lozimki, I.Davron o'z davrining yetuk musavvirlaridan biri bo'lganligi bilan ham diqqatni jalb egadi. U toshkentlik shoir va hattot Sidqiy-Xondayliqiy, Qo'qonlik hattot Mirza Hayrullo, jalolobodlik Abdulhamid qori, Mulla Xusniddin, Mulla Ortiq Rahmatiy kabi muosir musavvirilar iltari surgan yangi yo'nalishni rivojlangirdi. U ishlagan bir qator tasviriy san'at asarlari "Ash'ori nisvon" to'plamida e'lon qilingan. Mazkur to'plamdan joy olgan ayrim rasmlarga to'xtab o'taylik. Shunday tasviriy san'at asarlaridan biri "Bir shoirai najiba" deb atalgan, portret janrida ishlangan rasmdir. Bu asarda shoira judayam ochik fonda tasvir etilgan. Rasmta nazar tashlagan xar qanday odamning ko'z o'ngida shoiraning hayo, ibo, iffat nuri yog'ilib turgan latofatli qiyofasi namoyon bo'ladi. Shunisi ajablanarliki, shoirai najiba ko'zlariga o'sha yillarda urf bo'lmagan ko'zoynak taqqanini ko'ramiz. Bu, bizningcha, Yevropa ta'siri o'laroq tug'ilgan g'oya bo'lsa kerak. Latofatli yuzi harir parda bilan yopilgan shoira siymosidan nazokatu zakovat ufurib turadi. Surat chetiga "Yuzima boqma, so'zima boq", degan so'zlar yozib qo'yilganki, bu ham ko'p narsalarga ishorat qiladi. Sirasini aytganda, ana shu suratta ham ma'rifatparvarlik g'oyasi sintdirilgan va bu holni sezish qiyin emas.

Ibrohim Davron rasmlari orqali o'z g'oya va fikrlari, orzu- istaklarini bayon qilgan. Shoirai najiba tasvirini "Ash'ori nisvon"da berishdan maqsad, bizningcha, shundaki, musavvir boshqa yurt shoiralari bilan o'zbek shoiralari o'rtasidagi nazokat va nafasatta asoslangan katta farqni ko'rsatmoqchi bo'lgan. Shu to'plamdan o'rin olgan yana bir tasviriy san'at asari "Xasratli shoira" deb nomlangan. Mazkur rasm shoira Nodiraxonimning 1902 yilda Andijonda yuz bergan mash'um zilzila munosabati bilan yozilgan bir she'ri yotilga ilova qilingan. Rasmda qayd etilgan manzaraga e'tibor qilaylik: Katta, sersuv, sokin oqayotgan daryo bo'yi, daryoning karama-qarshi sohilida qalin daraxtzor... Odamlar qayiqda suzishmoqda... Bu sohilda esa, qaddi-qomati kelishgan, uzun va qalin turmaklangan sochlari o'ziga yarashgan, yevropacha qiyingan bir suluv chuqur o'yta tolib, tizzalarini quchoqlagan alfozda o'tiribdi. Chamasi, u el-yurt boshiga zilzila tufayli tushgan savdolardan, azobu uqubatlardan ezilib, qon yutib o'tiribdi, uning butun hayoli shunga qaratilgan. She'r va surat mazmunidagi uyg'unlik, ulardagi g'oya mushtarakligi Ibrohim Davron mahoratining, ijodkorligining muhim bir qirrasidir. "Ash'ori nisvon" to'plamiga kiritilgan yana bir rasm "Hayol olaminda" deb ataladi. Bu rasm, bizningcha, Yevropa nashrlarida mavjud bo'lgan tasviriy san'at asarlari ta'sirida ishlangan. Rasmda bir oz etilgan qarag'ay, kallaklashan daraxt, o'rtada o'q va yoy ushlagan holda xavoda muallaq turgan Amur (farishga timsoli), suratning yuqori qismida esa qanot qoqmoqqa shaylanib turgan qushcha tasvir etilgan. Ehtimolki, bu rasmlarda o'z-o'zini idora ega olmaydigan mustamlaka



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Turkiston, undan madad ololmagan, ammo hurriyat uchun kurashga shaylanib turgan vaganparvarni ta'sirchan ifodalash maqsadi nazarda to'tilgandir. Rassom kallaklangan daraxtdak o'sib chiqqan yosh navdalar orqali Turkistondagi milliy uyg'onish qaldirg'ochlari, qanot qoqayotgan qush obrazi orqali shu qaldirg'ochlar izidan borishga shaylangan yoshlarning umumlashma obrazini berishga intilgan bo'lishi mumkin.

To'plamda e'lon qilingan yana bir rasmning yuqori tomotilga "Bizning xotunlar muassuf hollarina emas, diydiyota ham yig'laydilar", deb yozib qo'yilgan. Bu rasmdan ham maqsad xalqning katta qismi bo'lgan xotin-qizlarni-da savodli qilish, zulmat va jaholatdan qutqarish, ijtimoiy ongini oshirish bo'lsa ajab emas. Ayolning bir qo'lida ochiq turgan kitob – "diydiyo"dan iborat bitik. Xotin-qizlar "diydiyo"lardan emas, balki o'zlari tushgan mudhish holdan yig'lashlari, shu holini o'ztartirish haqida qayg'urishlari, qag'uribgina qolmay, ilm-ma'rifatni egallash uchun astoydil harakat qilishlari zarur, degan fikr iltari surilgan ushbu rasmda.

Ibrohim Davronning ijodiy merosida biz tilga olgan rasmlardan tashqari, "Tabiiy bir tepalik", "O'sh, bir shoiraning mozori", "Skripka ushlagan qiz", Zebunniso va Nodira she'rlariga chizilgan, shuningdek, "Madaniy jumboqlar" kitobchasiga ishlangan rasmlar ham bo'lib, ular nafaqat adibning serqirra faoliyati, balki uning chuqur falsafiy mushohadalari, zamonning ijtimoiy hamda dardchil muammolariga xozirjavobligini ko'rsatuvchi dalil sifatida muhim ahamiyat kasb egadi. Ibrohim Davron "Kentash" jurnalida musavvirlik faoliya-ti davrida Hamzadek xassos san'atkor bilan mungazam aloqada bo'lgan. Bu hamkorlik 1917 yildan chiqqa boshlagan "Xurriyat" jurnalida ham davom etdi. Zero, yangi g'oya tug'ilar ekan, uning ijrochilari ham yuzaga keladi.

Agar usuli jadid maktablarining yangi g'oyalar ibtidosi ekanligi e'tiborda to'tilsa, uning ishtirokchilari Ibrohim Davrondek, Hamzadek tarix sahnasida muhim rol o'ynagan jadidlardir. Ular Turkistondagi boshqa maslakdoshlari singari, yangi maktablar tashkil etish, teatr ochib, jadidchilik g'oyalarini targ'ib etishga mo'ljallangan mo'jaz dramalar yozib, ularni sahnalashtirish, gazeta va jurnallar chop etish, ularda o'tkir publitsistik va badiiy asarlar yozib, elni ma'rifatlangirish, milliy ongni shakllangirishda bemisl va takrorlanmas fidoyilik namunalari ko'rsatganlar.

Prof. I.S.Bratinskiy "Jadidlarning adabiy faoliyati misolida O'rta Osiyo jadidchiligining tabiati" nomli tadqiqotida jadidlar adabiy faoliyatida davriy matbuot muhim rol o'ynaganligi, teatrchilik urfta kirganligi, yangidan ochilgan "usuli jadid" maktablari uchun ko'pdan-ko'p darsliklar yaratilganini alohida qayd egadi.

XX asr boshlarida Qo'qonda ma'rifatparvarlik g'oyalarini tarqatishda muhim rol ham uynadi.



**ZAMONAVIY TA'LIM STRATEGIYALARI:
MUAMMO VA YECHIMLAR**
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
2026-yil 30-aprel



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Po'latjon Domulla Qayyumov. Tazkirayi Qayyumiy. - Toshkent. 1998. - B. 487-488
2. Naim Karimov. Cho'lponning hayoti va ijodiga oid yangi fakt va materiallar. "Cho'lpon hayoti va adabiy merosi" respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari. Andijon. 23 iyun 2000.
3. Cho'lpon. Adabiyot nador?. Toshkent. "Cho'lpon". 1994. - B. 42-43.
4. Ibrohim Davron. "Ash'ori nisvon". (litotipografiya). I.I. Vayner Matbaasi. 1914 yil.
5. H.H. Niyoziy. Mukammal asarlar to'plami. 4 jildlik. 4 jild. Toshkent. 1981. - B. 167-168.
6. R. Tojiboyev. Furqatning feletonnavis izdoshi. O'zbek tili va adabiyoti
7. Uzbek tilishtg izoxli lugati. 1-jild. - Moskva, 1981. - B. 270.
8. Baldauf II. XX asr uzbek adabiyotiga chizgilar. - Toshkent, 2000. - B. 8.
9. Rizayev Sh. Jadid dramasi - B. 5.
10. Qosimov B. Jadidchilik. Milliy uygonish va o'zbek filologiyasi masalalari. Toshkent. 1993. - B. 21-22.
11. Jalolov A. Jadid adabiyotida milliy ozodlik na itgiqlol g'oyalari. "O'zbek tili va adabiyoti. 1996 yil, 4-son. - B. 16.
12. Axmedov S. Ibroxim Davron. Sovet O'zbekistoni gazetasi, 1988, 9-son. - B. 10.